



**JEK LONDONNING “MARTIN IDEN” ASARIDA FRIDRIX
NITSSHE FALSAFASINING BOSH QAHRAMON HAYOTIDAGI TA’SIRI**

Bobonazarova Gulxayo Habibulla qizi

Namangan davlat universiteti Ingliz tili kafedrası stajyor o’qituvchisi

guliii.bobonazarova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola XX asrdagi mashhur nemis faylasufi va sotsiologi Fridrix Nitsshe va uning qarashlari haqida qisqacha ma’lumot beradi. Bundan tashqari, Jek Londoning “Martin Iden” romanidagi bosh qahramon Martinning ushbu falsafiy qarashlar ta’sirida o’z hayotida bo’lgan ijobiy va salbiy o’zgarishlarni yoritib beradi. Zero, inson hayotida nimadir burilish yasaydi va bu katta hayotiy siljishlarga olib keladi. Martin ham oddiy dengizchi yigit timsolidan o’qimishli yozuvchi darajasiga har xil hayotiy va falsafiy qarashlarining o’zgarishi sababli erishdi.

Kalit so’zlar: ideal inson, “o’z-o’zini yaratish”, “supermen”, individualism, ijtimoiy normativ.

Fridrix Nitsshe – XX asrda yashagan jahon falsafiy tafakkuri o’sishiga munosib hissa qo’shgan buyuk nemis faylasuflaridan biri hisoblanadi. U 1844-yilda Lyuttsen yaqinidagi Rekken shahrida tug’ilgan. 1864-1868 yillarda Bonn va Leyptsig shaharlarida o’qiydi. 1869-1878 yillarda Bazel universitetining professori sifatida faoliyat yuritadi va kasalligi tufayli ishini tashlaydi. 1888-yilda falaj bo’lib qoladi, ko’p o’tmay aqli zaiflasha boshlaydi. Singlisi Elizabet Fyorster Nitsshe unga g’amxo’rlik ko’rsatish bilan birga uning asarlarini nashr etish borasida jonbozlik ko’rsatadi. Faylasuf 1900 yili Veymar shahrida vafot etadi.

Nitsshe qisqa umri davomida bir qancha asarlar yozdi. Ayniqsa, Nitsshening mashhur asari “Zardo’sht tavallosi: hamma uchun va hech kimga atalmagan kitob”dir. O’zining bu asarini Nitsshe “insoniyat qo’lidagi kitoblar ichida eng terani”, deb hisoblagan. Uning “Hokimiyatga intilish” nomli asari ham katta shuhrat qozondi. Bundan tashqari, “Tarixning hayot uchun foyda va zarari to’g’risida”, “Shopengauer murabbiy sifatida”, “Rixard Vagner Bayretda”, “Erkin tafakkur sohiblari uchun qo’llanma”, “Axloqning mohiyati” nomli asarlarida hayot falsafasi chinakamiga namoyon bo’lgan.

Nitsshe falsafasiga “Shopengauerning volyuntaristik metafizikasi” va “Darvinning yashash uchun kurash qonuni” katta ta’sir ko’rsatdi. Bu ta’limotlarga asoslangan Nitsshe barcha soxta, chirkin, hayotga dushman bo’lgan narsalarni yo’q qilishga tayyor turuvchi yangi inson idealini yaratishga intildi. Nitsshe xristianlikka qarshi kurashdi va burjuaziyaga qarshi edi, bunday odamlarning axloqini soxta axloq deb bildi. Nitsshechilikning metafizik g’oyasi „barcha mavjudotlar, shu jumladan, inson ongida ham hokimiyatga intilish shakli namoyon bo’ladi, hech qanday mutlaq hayot yo’q, hamma narsa mangu qaytarilishga mahkum“ degan fikrda mujassamlashgan. Nitsshe





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

falsafaga „hokimiyatga intilish“ g‘oyasidan tashqari, „barcha qadriyatlarini qayta baholash“, „ideal inson“ tushunchalarini kiritdi.

Nitsshe falsafasi asrning boshlarida Yevropaning keng e'tirofiga sazovor bo'lgan Amerika ijodiy elitasi vakillariga bilvosita ta'sir ko'rsatishi mumkin edi, chunki Nitsshening nemis va fransuz mafkurasi talqinlari AQShga tarjimalardan oldinroq matnlarning o'zi kelgan.

Birinchi jahon urushidan keyin amerikalik yozuvchilar va tanqidchilar Nitsshe g'oyalariga biroz e'tibor berishda davom etishlariga qaramay, urushlararo davrda mutafakkirning mashhurligi aniq pasayib ketganini tan olish kerak. O'zini intellektual deb da'vo qiladigan har qanday o'quvchi va tanqidchi uchun o'ziga xos majburiy matnlardan biri bo'lib qolgan Nitsshening asarlari endi yangi ijtimoiy-madaniy sharoitlarda o'z yangiligi va dolzarbligini yo'qotgan holda bunday aniq va ochiq e'lon qilingan narsalarga qiziqish uyg'otmaydi. Nitsshe merosi birinchi navbatda faylasuflar tomonidan o'rganiladigan mavzu bo'lib, 1960-yillarning o'rtalarigacha Qo'shma Shtatlarda davom etadigan an'anaga aylandi.


Nitsshe yangi uslubiy shakllarni topgan tanqidchi va [shoir](#), aforizmlar ustasi edi. Nitsshe falsafasining sofistika shakli uni tushinishni qiyinlashtiradi.

Nitsshe g'oyalarining Amerika intellektual muhitiga ta'sirining yana bir yorqin misoli Jek London kabi mashhur amerikalik yozuvchining „Martin Iden“ ijodida ko'rish mumkin. Xususan, bosh qahramonning hayotidagi turli ijtimoiy kelishmovchiliklar va burjuaziyaga qarshi kurash boshlashi aynan Martin ham Nitsshening falsafasiga qiziqib qolganligi va uni himoya qilishga kirishganligini ifodalaydi. Martin do'sti Brissenden bilan qalin do'stlashib qoladi va turli ijtimoiy siyosiy majlislarda qatnashadi. Asarda Martin Iden o'zining shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy muhit bilan kurashini tasvirlaydi, bu esa Nitsshening „o'z-o'zini yaratish“, „supermen“ g'oyasi va individualizm tushunchalari bilan bog'liq.

Martin Iden o'zining shaxsiy maqsadlariga erishish uchun kurashadi. U o'zini boshqalardan ajratib, o'z yo'lini tanlaydi, bu esa Nitsshening individualizm g'oyasini aks ettiradi. Shu sababli ham, Martin Ruf aytgan burjuaziyaga ergashish yo'lidan emas o'zining shaxsiy yo'li borligini anglab yetadi. Martin o'zining individualist g'oyalariga sodiq qoladi, ammo bu uni jamiyatdan ajratib qo'yadi. U o'zini boshqalardan farqli ravishda rivojlantirishga harakat qiladi, lekin bu jarayon uni yolg'iz va tushunilmaydigan holatga olib keladi.

Martin Iden o'z bilimini oshirish va yozuvchi bo'lish uchun juda ko'p mehnat qiladi. Bu jarayon Nitsshening „o'z-o'zini yaratish“ g'oyasini tasdiqlaydi, ya'ni inson o'z taqdirini o'zi belgilashi kerak. Martin o'zining yutuqlari va muvaffaqiyatlariga qaramay, ichki bo'shliq va ma'naviy inqirozga duch keladi. U o'z hayotining ma'nosini yo'qotadi va bu Nitsshening "supermen" g'oyasining amalga oshmasligini ko'rsatadi.

Asarda Martin ijtimoiy tizimga qarshi chiqadi va jamiyatning qoidalariga mos kelmasligi sababli izolyatsiya qilinadi. Aynan shuning uchun Martin ko'plab to'siqlarga





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

duch keladi. Nitsshening falsafasi ijtimoiy normativlarga qarshi chiqishni rag'batlantirsa-da, Martinning bu kurashi uni yanada chuqurroq tanazzulga olib keladi.

Martin Iden o'z hayotining ma'nosini izlaydi va bu jarayonda ko'plab qiyinchiliklarga duch keladi. Martin o'zining yozuvchi bo'lish orzusini amalga oshirishga harakat qiladi, lekin oxir-oqibat, u hayotining ma'nosini topa olmaydi. Bunda, Nitsshe g'oyalari orqali, hayotning ma'nosi ko'proq shaxsiy tajribalarga bog'liq ekanligi ko'rsatiladi. Nitsshening falsafasida insonning o'z taqdirini belgilashdagi qiyinchiliklarni aks ettiradi.

Shu tariqa, Nitsshe falsafasini bilmasdan oldin Martin Iden o'zining shaxsiy orzulari va idealizmi bilan yashovchi oddiy bir inson edi. Uning hayoti va fikrlari Nietshe ta'siri ostida o'zgaradi va chuqurlashadi, bu esa uning ichki kurashini yanada kuchaytiradi. Asarda Nitsshening falsafasi Martinning hayoti va qarorlarida o'z aksini topadi, bu esa asarning chuqur ma'nosini ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Fridrix Nitshe. Maktublar, Abduhamid Pardayev tarjimasi, "Jahon adabiyoti" jurnali, 2010 yil, 5-son.
2. Hollingdale, R. J. (1999). Nietzsche: The Man and His Philosophy (2 ed.). Cambridge: Cambridge University Press. ISBN 978-0-521-64091-6.
3. Jek London: Martin Iden. Roman. Toshkent, 1968
4. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil. Saidra Jo'rayeva.
5. Галеви Д., Жизнь Фридриха Ницше, М., 1991;
6. Цвейг С., Вчерашний мир, М., 1991.
7. Bobonazarova, G., & Kenjayev, A. (2024, April). TILSHUNOSLIKDA "UMIDSIZLIK" TUSHUNCHASI VA UNING "MARTIN IDEN" ROMANIDAGI IFODASI. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 554-556).
8. Xamidova, N., & Bobonazarova, G. (2024, February). Easy ways of learning English. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 71-73).
9. qizi Bobonazarova, G. H. (2024). JEK LONDONNING "MARTIN IDEN" ROMANIDA AMERIKA REALIZMI DAVRIDAGI HAYOT AKSI. *Analysis of world scientific views International Scientific Journal*, 2(1), 196-202.
10. qizi Bobonazarova, G. H. (2024). Kognitiv tilshunoslikda tafakkur va konsept tushunchalari. *Zamonaviy fan va ta'lim yangiliklari xalqaro ilmiy jurnal*, 2(1), 226-232.
11. Djumabaeva, V., Babaeva, G., & Paluanova, M. (2021). APPLYING CLT IN READING CLASSES. *Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka*, 1(1).
12. Karimovna, S. Z. (2024). THE ROLE OF FOREIGN LANGUAGES IN HUMAN LIFE. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 11(01).
13. Kadirovna, A. D. (2021, February). Learning strategies for modern pedagogy. In *E-Conference Globe* (pp. 126-129).





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

14. Saidkadirova, D. (2020). PHENOMENON OF RETERMINOLOGIZATION IN THE FORMATION OF INTERNET TERMS. *Theoretical & Applied Science*, (6), 106-110.

15. Xayrulloevna, S. Z. (2023). Development of the detective genre in American literature. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(03), 24-33.

16. Xayrulloevna, S. Z. (2024). THE NOIR LEGACY AND ITS INFLUENCE ON CONTEMPORARY LITERATURE. *International Journal Of Literature And Languages*, 4(05), 18-24.

17. qizi Bobonazarova, G. H. (2023). Jek London hayotining “Martin Iden” asaridagi aksi. *Golden brain*, 1(10), 280-283.

18. Bobonazarova, G. H. Q. (2021). Tilshunoslikda paradigma va uning kelib chiqishi. *Scientific progress*, 1(6), 1229-1233.

